

**O‘ZBEK DAVLATCHILIGI TARIXINING IJTIMOYIY TARMOQLARDAGI  
TASVIRI: DEZINFORMATSIYA VA MUAMMOLAR**

*Maxmudov Temirxon Toxirjon o‘g‘li*

*Qo‘qon universiteti ijtimoy fanlar kafedrasida*

*tarix fani o‘qituvchisi*

*Mail: [Temirxontarix@mail.ru](mailto:Temirxontarix@mail.ru)*

*Tel: +998993459216*

**Annotatsiya.**

Ushbu maqolada O‘zbekiston davlatchiligi tarixining ijtimoiy tarmoqlarda yoritilishi undagi muammoli jihatlar, biryoqlama talqinlar va tarixiy ong shakllanishidagi o‘zgarishlar tahlil qilinadi. Shuningdek, raqamli muhitda tarixiy narrativlarning shakllanishi, ularning ilmiy tarixshunoslik bilan munosabati hamda internet platformalarining ijtimoiy tasavvurga ta’siri ko‘rib chiqiladi.

**Kalit so‘zlar:** tarixshunoslik, ijtimoiy tarmoqlar, algoritim, tarixiy ong, O‘zbekiston davlatchiligi, dezinformatsiya, narrativ.

**Abstract**

This article analyzes the coverage of Uzbekistan’s statehood history in social media, focusing on its problematic aspects, one-sided interpretations, and changes in the formation of historical consciousness. It also examines the formation of historical narratives in the digital environment, their relationship with academic historiography, and the influence of internet platforms on public perception. The study highlights how rapid information dissemination through social networks contributes to the transformation of historical knowledge and public understanding of national history.

**Keywords:** Historiography, social media, algorithm, historical consciousness, Uzbekistan statehood, misinformation, narrative.

**Аннотация**

В данной статье анализируется освещение истории государственности Узбекистана в социальных сетях, рассматриваются её проблемные аспекты, односторонние интерпретации и изменения в формировании исторического сознания. Также исследуется формирование исторических нарративов в цифровой среде, их соотношение с академической историографией и влияние интернет-платформ на общественное восприятие. Особое внимание уделяется тому, как быстрое распространение информации в социальных сетях способствует трансформации исторических знаний и общественного понимания национальной истории.

**Ключевые слова:** Историография, социальные сети, алгоритм, историческое сознание, государственность Узбекистана, дезинформация, нарратив.

**Kirish.** Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda tarixiy merosni qayta o‘rganish, milliy davlatchilik tarixini tiklash va tarixiy xotirani shakllantirish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Sovet davrida tarix ko‘p hollarda mafkuraviy yondashuv asosida talqin qilingan bo‘lsa, mustaqillikdan keyin tarixni qayta ko‘rib chiqish, yangi manbalarni ilmiy muomalaga kiritish va xalqning tarixiy xotirasini tiklash jarayoni boshlandi. Bu jarayonda O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q asari muhim ahamiyat kasb etdi. Asarda o‘zbek davlatchiligi tarixini o‘rganishdagi muammolar, tarixiy xotiraning ahamiyati va tarix fanining oldida turgan vazifalar haqida fikr yuritilgan edi. Shundan so‘ng tarixchilar tomonidan ko‘plab qadimiy qo‘lyozmalar tarjima qilindi, ilmiy tadqiqotlar olib borildi va O‘zbekiston tarixiga oid ko‘plab ilmiy asarlar yaratildi. Natijada O‘zbekiston tarixi qadimgi davrlardan boshlab izchil o‘rganila boshlandi. Qadimgi shahar-davlatlar, antik davr, ilk o‘rta asrlar, rivojlangan o‘rta asrlar, yangi va eng yangi davr tarixi, turli sulolalar, davlatlar, tarixiy shaxslar, din, madaniyat va me‘morchilik masalalari tarixshunoslikning muhim yo‘nalishlariga aylandi.

So‘nggi yillarda tarixiy merosni o‘rganish va targ‘ib qilish davlat siyosatida ham muhim o‘rin egallamoqda. Buning yorqin misollaridan biri 2026-yil 9-aprelda Amir Temur tavalludining 690 yilligi munosabati bilan o‘tkazilgan tadbirlardir. Shu kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Toshkent shahridagi Amir Temur xiyoboniga tashrif buyurib, Amir Temur haykali poyiga gulchambar qo‘ydi. Shuningdek, Prezident tashabbusi bilan Islom sivilizatsiyasi markazida “Amir Temur va temuriylar tamaddunining jahon tarixi va madaniyatidagi o‘rni va ahamiyati” mavzusida xalqaro ilmiy konferensiya tashkil etildi. Prezidentning konferensiya ishtirokchilariga yo‘llagan tabrigida Amir Temurning 690 yilligi munosabati bilan alohida qaror qabul qilingani, unga ko‘ra har yilning aprel oyini “Amir Temur oyligi” sifatida nishonlash, mahalliy va xalqaro miqyosda ilmiy-amaliy konferensiyalar hamda ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlar o‘tkazish belgilab qo‘yilgani ta‘kidlandi. Bundan tashqari, Prezidentning turli xorijiy davlat rahbarlari bilan uchrashuvlarida Amir Temur siymosiga murojaat qilishi ham sohibqiron merosining zamonaviy O‘zbekiston davlatchilik konsepsiyasidagi o‘rnini ko‘rsatadi

Shuningdek, 2022-yil 21-aprelda Qashqadaryo viloyatining Ko‘kdala tumanida bo‘lib o‘tgan uchrashuvda Prezident Amir Temurning To‘xtamishxon bilan bo‘lgan jangi haqida to‘xtalib, uning harbiy mahorati va jang olib borish usullarini alohida ta‘kidlagan edi. U Amir Temur qo‘llagan jang usullari hali yetarlicha o‘rganilmaganini qayd etib, bobolarimizning harbiy merosini chuqur tadqiq etish zarurligini ta‘kidlagan. Bu misollar O‘zbekistonda tarixiy merosni o‘rganish va targ‘ib qilish davlat darajasida qo‘llab-quvvatlanayotganini ko‘rsatadi. Biroq ayni paytda tarixiy bilimlarning tarqalishida yangi omil - ijtimoiy tarmoqlar tobora muhim o‘rin egallamoqda. Agar

ilmiy tarixshunoslik tarixiy jarayonlarni manbalar va ilmiy metodlar asosida o‘rgansa, ijtimoiy tarmoqlarda tarix ko‘pincha qisqa videolar, postlar va ommaviy kontentlar orqali tarqaladi. Dastlab bunday holatlar uncha ko‘zga tashlanmagan bo‘lsa-da, keyingi yillarda, ayniqsa 2026-yilga kelib, tarixiy mavzudagi kontentlar soni keskin ortdi. Ijtimoiy tarmoqlar algoritmlar asosida ishlagani sababli foydalanuvchi tarixga oid materiallarni ko‘proq tomosha qilgan sari unga yana shunga o‘xshash kontentlar tavsiya qilinadi. Natijada ayrim hollarda tarixiy voqealar va shaxslar ilmiy tadqiqotlar asosida emas, balki hissiyot, diniy qarashlar, etnik identitet yoki auditoriya e‘tiborini jalb qilish maqsadida talqin qilinadigan holatlar ham uchramoqda.

Zamonaviy axborot makonida ijtimoiy tarmoqlar ma‘lumot tarqatish tezligi jihatidan ko‘plab ilmiy tashkilotlar, akademik nashrlar va rasmiy ommaviy axborot vositalaridan ustunlik qilmoqda. Ilmiy maqola yoki kitobning o‘quvchiga yetib borishi uchun ma‘lum vaqt talab qilinsa, ijtimoiy tarmoqlarda tayyorlangan qisqa video yoki post bir necha soat ichida yuz minglab foydalanuvchilarga yetib borishi mumkin. Bundan tashqari, bugungi kunda aholining katta qismi tarixiy bilimlarni kitoblar, ilmiy jurnallar, gazeta va rasmiy internet saytlari orqali emas, balki Instagram, Facebook, YouTube, TikTok va Telegram kabi platformalar orqali olmoqda. Ilmiy adabiyotlarni o‘qish ma‘lum tayyorgarlik, vaqt va izlanishni talab qiladi. Aksincha, ijtimoiy tarmoqlardagi qisqa videolar va soddalashtirilgan kontentlar murakkab tarixiy masalalarni bir necha daqiqada tushuntirib berishni va‘da qiladi. Natijada ko‘pchilik foydalanuvchilar murakkab ilmiy matnlardan ko‘ra oson qabul qilinadigan va hissiyotlarga ta‘sir qiluvchi kontentlarni tanlamoqda. Ayrim kontent yaratuvchilari esa ushbu holatdan foydalanib, tarixiy voqealarni soddalashtirilgan, biryoqlama yoki bahsli talqinlarda taqdim etish orqali keng auditoriyani jalb qilmoqda. Ba‘zi hollarda tarixiy haqiqatdan ko‘ra ko‘proq ko‘rishlar soni, obunachilar orttirish yoki ommaviy qiziqish uyg‘otish maqsadi ustuvor bo‘lib qolmoqda. Mazkur maqolada aynan ijtimoiy tarmoqlarda O‘zbek davlatchiligi tarixining yoritilishi, bu jarayonda uchrayotgan muammolar hamda ularning tarixiy ong va jamiyatga ta‘siri tahlil qilinadi.

Ijtimoiy tarmoqlarda tez-tez uchraydigan narrativlardan biri ayrim tarixiy davrlar va shaxslar haqidagi ma‘lumotlar Chor Rossiyasi, Sovet Ittifoqi yoki boshqa davlatlar tomonidan ataylab yashirilgani haqidagi da‘volardir. Biroq tarixshunoslik materiallari bunday qarashlarni har doim ham tasdiqlamaydi. Masalan Rossiya tarixshunosligida turkiy va mo‘g‘ul davlatlari tarixi mutlaqo chetda qoldirilmagan. Aksincha, Qrim xonligi, Qozon xonligi, Astraxan xonligi, Sibir xonligi va Oltin O‘rda tarixiga bag‘ishlangan ko‘plab ilmiy tadqiqotlar XIX asrdan boshlab amalga oshirilgan. Rossiya sharqshunoslik maktabi vakillari tomonidan ushbu davlatlarning siyosiy tarixi, iqtisodiy hayoti, diplomatik munosabatlari va madaniy merosi keng o‘rganilgan.

Shuningdek, turkiy xalqlarning eng muhim yozma yodgorliklaridan hisoblangan O‘rxun-Enasoy bitiklarini o‘rganishda ham rus va yevropalik olimlarning hissasi katta bo‘lgan. XIX-XX asrlarda ushbu yodgorliklarni topish, nusxalash, nashr etish va ilmiy muomalaga kiritish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilgan. Bu holat turkiy tarixga oid manbalar ataylab yashirilgan degan fikrni murakkablashtiradi. Xunlar tarixiga oid masala ham alohida e‘tiborga loyiqdir. Bugungi kunda Modu (Mao-dun) Shanyu va umuman xunlar haqidagi asosiy ma‘lumotlar qadimgi Xitoy tarixiy asarlarida saqlanib qolgan. Jumladan, Shiji (“Tarixiy qaydlar”) hamda Hanshu (“Xan sulolasi tarixi”) asarlarida xunlarning siyosiy tuzilishi, hukmdorlari, harbiy yurishlari va Xitoy bilan munosabatlari haqida batafsil ma‘lumotlar uchraydi. Aynan shu manbalar orqali Modu Shanyuning faoliyati, hukmronlik davri va amalga oshirgan siyosati haqida aniq tasavvur hosil qilish mumkin. E‘tiborlisi, keyinchalik turkiy xalqlarning O‘rxun-Enasoy bitiklarida xunlar tarixi yoki Modu Shanyuning faoliyati haqida batafsil ma‘lumotlar uchramaydi. O‘rxun bitiklari asosan VI-VIII asrlardagi Turk xoqonligi davriga oid siyosiy voqealarni aks ettiradi. Shu sababli xunlar tarixini tiklashda asosiy manba vazifasini qadimgi Xitoy yilnomalari bajaradi. Islom davri tarixshunosligida esa xunlar va qadimgi turkiy ajdodlar haqidagi tasavvurlar ko‘pincha O‘g‘uzxon rivoyatlari bilan bog‘lanib ketadi. Biroq musulmon mualliflarining asarlarida bu voqealar ko‘pincha afsonaviy va geneologik shaklda berilgan bo‘lib, hukmdorlarning aniq hukmronlik yillari, unvonlari yoki siyosiy faoliyati qadimgi Xitoy manbalaridagi darajada batafsil qayd etilmagan. Natijada vaqt o‘tishi bilan tarixiy voqealar rivoyatlar va xalq og‘zaki an‘analari bilan qorishib ketgan. Shu nuqtai nazardan qaraganda, ayrim tarixiy ma‘lumotlarning kam ma‘lum bo‘lishini ularning ataylab yashirilgani bilan emas, balki manbalarning murakkabligi, til to‘siqlari, ilmiy adabiyotlarning cheklangan auditoriyaga mo‘ljallangani hamda tarixiy bilimlarni ommalashtirishdagi muammolar bilan izohlash maqsadga muvofiqroqdir. Ijtimoiy tarmoqlarda uchraydigan “turkiy tarix va yozma manbalar ataylab yashirilgan” degan da‘volar tarixshunoslikdagi mavjud ilmiy tajriba bilan to‘liq mos kelmaydi. Aksincha, XIX asr oxiri va XX asr boshlaridan boshlab turkiy xalqlar tarixiga oid yozma yodgorliklarni topish, o‘rganish va nashr qilish bo‘yicha turli mamlakatlar olimlari tomonidan katta ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, rus tadqiqotchisi Nikolay Yadrintsev 1889-yilda Mo‘g‘uliston hududidagi O‘rxun vodiysida qadimgi turkiy bitiktoshlarni ilmiy jamoatchilikka tanitgan. Mazkur topilma turkiy xalqlar tarixini o‘rganishda yangi bosqichni boshlab berdi. Keyinchalik daniyalik olim Vilhelm Thomsen 1893-yilda O‘rxun yozuvlarining kalitini topib, bitiklarni o‘qishga muvaffaq bo‘ldi. Bu voqea turkiy xalqlar tarixshunosligidagi eng muhim ilmiy yutuqlardan biri hisoblanadi. Shundan so‘ng rus turkshunosi Vasily Radlov (Vilgelm Radlov) bitiklarning to‘liq matnlarini nashr etish, tarjima qilish va ilmiy sharhlash ishlarini olib bordi. Shuningdek, Vasily Bartold Markaziy Osiyo va

Turkiston tarixini o'rganishda ulkan ilmiy meros qoldirdi. Uning asarlari bugungi kunda ham mintaqa tarixini tadqiq etishda asosiy manbalardan biri sifatida foydalaniladi. XX asr davomida Sergey Klyashtorny, Lev Gumilev va boshqa ko'plab olimlar qadimgi turkiy xalqlar, Turk xoqonligi va ko'chmanchi imperiyalar tarixini tadqiq qildilar. Bu faktlar shuni ko'rsatadiki, turkiy yozma meros va qadimgi turkiy davlatlar tarixi ilmiy muomaladan chiqarib tashlanmagan. Aksincha, ularni aniqlash, o'qish va ilmiy tadqiq etishda rus, yevropa va keyinchalik turkiyalik hamda markaziy osiyolik olimlar muhim rol o'ynaganlar. Xunlar tarixiga oid masalada ham shunga o'xshash holat kuzatiladi. Bugungi kunda Modu (Mao-dun) Shanyu va boshqa xun hukmdorlari haqidagi asosiy ma'lumotlar qadimgi Xitoy tarixiy asarlarida saqlanib qolgan. Xususan, Shiji va Hanshu asarlarida xunlar davlati, ularning hukmdorlari, siyosiy tuzumi va harbiy yurishlari haqida batafsil ma'lumotlar berilgan. Shuni ta'kidlash kerakki, Modu Shanyuning faoliyati haqidagi aniq tarixiy ma'lumotlar asosan Xitoy yilnomalari orqali ma'lum bo'lgan. Keyingi turkiy va islomiy tarixiy an'analarda esa qadimgi turkiy ajdodlar haqidagi xotiralar ko'pincha O'g'uzxon rivoyatlari bilan uyg'unlashib ketadi. Natijada tarixiy voqealar va afsonaviy unsurlar bir-biriga aralashadi. Shu sababli zamonaviy tarixshunoslik qadimgi turkiy tarixni tiklashda birlamchi manba sifatida Xitoy yilnomalariga alohida ahamiyat beradi. Demak, bugungi kunda "bizdan yashirilgan tarix" sifatida taqdim etilayotgan ayrim ma'lumotlarning katta qismi aslida XIX-XX asrlardan boshlab ilmiy muomalaga kiritilgan, nashr qilingan va tadqiq etilgan manbalarga tayanadi. Muammo ko'proq ushbu ilmiy adabiyotlarning keng omma tomonidan kam o'qilishi va ijtimoiy tarmoqlardagi soddalashtirilgan talqinlarning tezroq tarqalishidadir. Masalan, ayrim kontentlarda 1998-yilda yaratilgan Disney studiyasining Mulan animatsion filmidagi Shan Yu obrazi bevosita Xunlar hukmdori Modu (Maodun) Shanyu bilan tenglashtiriladi va multfilm go'yoki tarixiy haqiqatni buzgan degan da'volar ilgari suriladi. Vaholanki, filmda qahramonning nomi faqat "Shan Yu" shaklida berilgan bo'lib, u aniq tarixiy shaxs sifatida ko'rsatilmagan. Bundan tashqari, "shanyu" qadimgi xunlarda hukmdor yoki oliy harbiy rahbar unvoni bo'lib, u faqat Modu Shanyuga tegishli bo'lmagan. Miloddan avvalgi III asrdan milodiy III asrgacha bo'lgan davrda xunlarning ko'plab hukmdorlari ushbu unvon bilan atalgan. Shunga qaramay, ayrim internet kontentlarida bu masala soddalashtirilib Shan Yu obrazi to'g'ridan to'g'ri Modu Shanyu sifatida talqin qilinmoqda. Shuningdek tarixiy geografiya va toponimika masalalarida ham ayrim noto'g'ri yondashuvlar uchraydi. Ba'zi kontentlarda tarixiy joy nomlari zamonaviy siyosiy yoki mafkuraviy qarashlarga moslashtirilgan holda o'zgartirib talaffuz qilinadi yoki talqin etiladi. Bu esa tarixiy manbalarda uchraydigan asl nomlarning buzilishiga olib keladi. Boshqa bir muhim masala arab fathlarigacha bo'lgan davr tarixining ikkinchi darajaga tushib qolishidir. Ayrim kontentlarda Markaziy Osiyo tarixi asosan islomlashuv davridan boshlab yoritiladi, natijada

qadimgi Xorazm, So‘g‘d, Baqtriya, Qang‘, Kushonlar davlati va boshqa siyosiy hamda madaniy markazlarning tarixiy merosi yetarli darajada yoritilmaydi. Holbuki, O‘zbekiston davlatchiligi tarixi faqat islomiy davr bilan emas, balki undan avvalgi ming yilliklar davomida shakllangan siyosiy va madaniy jarayonlar bilan ham chambarchas bog‘liqdir.

Ijtimoiy tarmoqlarda ko‘p uchraydigan da‘volardan biri Shayboniylar davri va Shayboniyxon shaxsiyati ataylab o‘rganilmagani yoki tarixdan yashirilgani haqidagi qarashlardir. Biroq tarixshunoslik materiallari bunday fikrlarning asossiz ekanligini ko‘rsatadi. Shayboniylar tarixiga oid asosiy manbalar orasida Zahiriddin Muhammad Boburning Boburnoma asari, Muhammad Solihning Shayboniyxon dostoni va boshqa ko‘plab tarixiy manbalar mavjud.

Muhammad Solihning Shayboniyxon asari XIX asr oxiridayoq ilmiy muomalaga kiritilgan. 1885-yilda sharqshunos Arminiy Vamberi tomonidan Vena shahrida asarning asl matni va nemischa tarjimai nashr etilgan. Keyinchalik 1904-yilda rus turkshunosi P.M. Melioranskiy Peterburgda asarning mukammallashtirilgan nashrini chop ettirgan. 1961-yilda esa asar O‘zbekiston Fanlar akademiyasi nashriyoti tomonidan to‘liq holda qayta nashr qilingan. Bundan tashqari, Muhammad Solih ijodi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilgan, dissertatsiyalar yozilgan va ko‘plab ilmiy maqolalar e‘lon qilingan. Shayboniylar davriga oid Hasanxo‘ja Nisoriyning Muzakkiri ahhob, Mehmonnomayi Buxoro, Tarixi olamoroyi Amini kabi manbalar, shuningdek zamonaviy tarixchilar va adiblarning tadqiqotlari ham mavjud. Sa‘dulla Siyoyevning Dashti Qipchoq lochini yoxud Shayboniyxon asari ham ushbu mavzuning ommabop adabiyotdagi aksidir. Bu manbalarning aksariyati rasmiy nashriyotlarda chop etilgan, kutubxonalar fondlariga kiritilgan va keng ilmiy muomalada bo‘lgan. Shu sababli Shayboniylar tarixi yoki Shayboniyxon haqidagi ma‘lumotlar ataylab yashirilgan degan da‘volarni ilmiy tarixshunoslik tasdiqlamaydi. Aksincha, muammo ko‘proq manbalarning mavjud emasligida emas, balki ularni o‘qish va o‘rganish madaniyatining pasayib borayotganidadir. Tarixiy bilimlarni shakllantirishda birlamchi va ilmiy manbalarga murojaat qilish muhim ahamiyatga ega. Tarixni qisqa videolar, ijtimoiy tarmoq postlari yoki badiiy seriallar orqali emas, balki tarixiy hujjatlar, ilmiy tadqiqotlar va akademik adabiyotlar asosida o‘rganish tarixiy ongning xolis shakllanishiga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, “tarix yashirilgan” degan da‘volar ko‘pincha ilmiy dalillardan ko‘ra auditoriya e‘tiborini jalb qilish va kontentning ommalashuviga xizmat qiluvchi vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Ijtimoiy tarmoqlarda kuzatilayotgan yana bir holat ayrim tarixiy shaxslar va davrlarning bir-biriga qarama-qarshi qo‘yilishidir. Xususan, O‘zbekiston davlatchiligi tarixida muhim o‘rin tutuvchi Amir Temur shaxsiga nisbatan tanqidiy yoki salbiy munosabat bildirilayotgan kontentlar soni ortib bormoqda. Bunday kontentlarda ko‘pincha Amir Temur faoliyati faqat musulmon hukmdorlar bilan olib borgan

urushlari orqali baholanadi. Ayrim mualliflar uning To‘xtamishxon, Boyazid Yildirim yoki boshqa musulmon hukmdorlar bilan bo‘lgan kurashlarini alohida ta’kidlab, natijada Temur kuchli musulmon davlatlarini zaiflashtirib, xristian davlatlarining kuchayishiga xizmat qilgan degan xulosalarni ilgari suradilar. Shu bilan birga, ayrim kontentlarda Amir Temurning harbiy mahorati yoki davlat arbobi sifatidagi faoliyati ikkinchi darajaga tushirilib, uning o‘rniga Khalid ibn al-Walid, Ziyad ibn Salih kabi islom tarixidagi sarkardalar namuna sifatida ko‘rsatiladi. Bu yerda asosiy urg‘u harbiy tarixdan ko‘ra diniy tarixga beriladi. Aholining katta qismi islom diniga e’tiqod qilishi va diniy shaxslarga alohida hurmat bilan qarashini hisobga olib, ayrim kontent mualliflari aynan shu omildan foydalanishga harakat qiladilar. Natijada muhokama tarixiy davrlar va shaxslarni ilmiy tahlil qilishdan ko‘ra, “kim ko‘proq musulmon bo‘lgan” yoki “kim diniy jihatdan ustunroq” degan mezonlarga ko‘chib qoladi. Vaholanki, turli davr, hudud va tarixiy sharoitlarda yashagan shaxslarni bunday usulda bevosita qiyoslash tarixshunoslik nuqtai nazaridan murakkab masala hisoblanadi. Shuningdek, ayrim kontentlarda O‘zbekiston tarixining o‘ziga xos jihatlaridan ko‘ra, umumiy turkiy yoki umumiy islomiy tarixga ko‘proq e’tibor qaratiladi. Bunda Arab xalifaligi, oltin o‘rda, Chingizxon va uning uluslari, Usmonlilar, Salohiddin Ayubbiyning Quddus fatxi yoki Shayboniylar davri haqidagi mavzular keng yoritilib, O‘zbekiston hududida shakllangan davlatlar va ularning tarixiy taraqqiyotiga kamroq e’tibor berilishi kuzatiladi. Albatta, turkiy va islomiy tarix O‘zbekiston tarixining ajralmas qismi hisoblanadi. Biroq milliy tarixni o‘rganish umumiy turkiy yoki umumiy islomiy tarixni o‘rganish bilan almashtirib yuborilmasligi kerak. Chunki O‘zbekiston davlatchiligi tarixi qadimgi Xorazm, So‘g‘d, Baqtriya, Qang‘ davrlaridan boshlab Temuriylar, Shayboniylar va keyingi davrlargacha bo‘lgan murakkab va ko‘p qatlamli tarixiy jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Shu sababli tarixiy kontentlarda umumiy sivilizatsion tarix bilan bir qatorda milliy tarixning o‘ziga xos jihatlarini ham saqlab qolish muhim ahamiyatga ega.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash kerakki bugungi kunda O‘zbekiston xalqaro maydonda tobora faolroq ishtirok etayotgan, iqtisodiyot, turizm, ilm-fan, ta’lim, sog‘liqni saqlash va investitsiyalar sohasida sezilarli yutuqlarga erishayotgan davlatlardan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda mamlakatning xalqaro nufuzi ortib, turli global reyting va indekslardagi ko‘rsatkichlari yaxshilanib bormoqda. O‘zbekiston xorijiy investorlarni jalb qilish, sayyohlar oqimini ko‘paytirish, xalqaro ilmiy hamkorlikni rivojlantirish va dunyo hamjamiyati bilan aloqalarni mustahkamlashga alohida e’tibor qaratmoqda. Shunday bir davrda ijtimoiy tarmoqlarda tarqalayotgan ayrim tarixiy kontentlarning uzoq muddatli oqibatlari haqida ham o‘ylash lozim. Tarixiy voqealarni biryoqlama talqin qilish, bosqin va urushlarni ulug‘lash, boshqa xalqlar yoki diniy guruhlariga nisbatan salbiy munosabat uyg‘otuvchi mazmundagi chiqishlar qisqa muddatda auditoriya e’tiborini tortishi mumkin. Biroq bunday

kontentlar internetning global tabiati tufayli faqat mahalliy auditoriya emas, balki boshqa mamlakatlar fuqarolari tomonidan ham ko‘riladi. Natijada ayrim xorijiy kuzatuvchilarda O‘zbekiston va o‘zbek xalqi haqida noto‘g‘ri tasavvurlar shakllanishi ehtimoli mavjud. Tarixiy bosqinlarni faxr bilan targ‘ib qilish, boshqa xalqlarning tarixiy fojealari yoki mag‘lubiyatlarini masxara qilish, diniy va etnik qarama-qarshiliklarni kuchaytiruvchi mazmundagi materiallar ayrim mamlakatlarda salbiy munosabat uyg‘otishi mumkin. Bu esa nafaqat mamlakatning xalqaro imijiga, balki turizm, investitsiya, ilmiy hamkorlik va madaniy aloqalarga ham bilvosita ta‘sir ko‘rsatishi ehtimoldan xoli emas. Bundan tashqari, xorijda ta‘lim olayotgan, ishlayotgan, davolanayotgan yoki sayohat qilayotgan O‘zbekiston fuqarolari ham ayrim stereotiplarning ta‘siriga duch kelishi mumkin. Albatta, bunday holatlarni bo‘rttirib ko‘rsatish to‘g‘ri emas, biroq axborot asrida davlat va xalq haqidagi tasavvurlar ko‘pincha internet orqali shakllanishini ham unutmaslik kerak. Shu sababli tarixiy kontentlar yaratishda nafaqat tarixiy haqiqat va ilmiylik, balki xalqaro mas‘uliyat ham hisobga olinishi zarur. Tarixdan g‘ururlanish tabiiy holat, biroq tarixni boshqa xalqlar, millatlar va dinlarni kamsitish vositasiga aylantirmaslik kerak. O‘zbekistonning boy tarixiy merosi faqat harbiy yurishlar va urushlardan iborat emas. Bu meros ilm-fan, madaniyat, me‘morchilik, adabiyot, bag‘rikenglik va sivilizatsiyalararo muloqot kabi umuminsoniy qadriyatlarni ham o‘z ichiga oladi. Aynan shu jihatlar mamlakatimizning xalqaro nufuzini mustahkamlashga va kelajak taraqqiyotiga xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. – Toshkent: Sharq, 1998.
2. Mirziyoyev Sh.M. Sohibqiron Amir Temur tavalludining 690 yilligiga bag‘ishlangan xalqaro ilmiy-amaliy anjuman ishtirokchilariga yo‘llagan tabrigi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy sayti- President.uz
3. “Amir Temur va Temuriylar tamaddunining jahon tarixi va madaniyatidagi o‘rni va ahamiyati” mavzusidagi xalqaro ilmiy konferensiya materiallari. iccu.uz
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sohibqiron Amir Temur tavalludining 690 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi PQ–46-son qarori, 2026-yil 5-fevral. ftp.yuz.uz
5. Bobur Z.M. Boburnoma. – Toshkent: Yulduzcha, turli nashrlar.
6. Muhammad Solih. Shayboniynoma. – Toshkent: O‘zbekiston Fanlar akademiyasi nashriyoti, 1961.
7. Vamberi A. Shaybani-nama. – Vena, 1885.
8. Melioranskiy P.M. Shaybani-nama. – Sankt-Peterburg, 1904.
9. Hasanxo‘ja Nisoriy. Muzakkiri ahhob. – Toshkent, 1993.
10. Mehmonnomayi Buxoro. – Moskva, 1976.
11. Tarixi olamoroyi Amini. – Boku, 1987.

- 12.Xoja Abduxoliq G'ijduvoni. – Toshkent, 2003.
- 13.Siyoyev S. Dashti Qipchoq lochini yoxud Shayboniyxon. – Toshkent.
- 14.Bartold V.V. Turkiston mo'g'ullar bosqini davrida. – Toshkent, turli nashrlar.
- 15.Gumilyov L.N. Qadimgi turklar. – Moskva, turli nashrlar.
- 16.Radlov V.V. Qadimgi turkiy yozuvlar va yodgorliklar bo'yicha tadqiqotlar.
- 17.Thomsen V. Inscriptions de l'Orkhon déchiffrées. – Kopenhagen, 1896.
- 18.Yadrintsev N.M. O'rxun vodiysidagi qadimgi turkiy bitiklarning topilishi haqidagi ilmiy hisobotlar. – 1889.
- 19.Sima Qian. Shiji (Tarixiy qaydlar). Ban Gu. Hanshu (Xan sulolasi tarixi).